

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 2-son

VOLUME 7 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.2.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR
TARIXI

- 6 **KARAHOДЖАЕВА ДИЛОРОМ
МАМИРОВНА**
А.И. Ишанов – выдающийся узбекский
ученый-государствовед

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 13 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЬЯС ТАВАСОВИЧ**
Конституционализм и наука конституционного
права: некоторые задачи и перспективы
развития
- 24 **YULDOSHBEKOV AVAZBEK
ALISHER O'G'LI**
QODIROVA DILDORA IRKINOVNA
Xorijiy investitsiya tushunchasining
nazariy-huquqiy jihatlari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 30 **XODJAYEV BAXSHILLO KAMOLOVICH**
Intellectual mulk huquqini boshqarish va
texnologiyalar transferini davlat tomonidan
qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy
masalalari
- 38 **XO'JAYEV SHOXJAXON AKMALJON O'G'LI**
Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya
qilishning o'ziga xos jihatlari
- 49 **SAYDIVALIYEVA XURSHIDA
XODJIAKBAROVNA**
Xorijiy davlatlarda oilaviy munosabatlarni
tartibga solishning o'ziga xos jihatlari va
oilaviy-huquqiy shartnomalar

61 **МУРОДЖОНОВА МОХИРАХОН
МАКСУДЖОН КИЗИ**

ИМАМОВА ДИЛФУЗА ИСМАИЛОВНА

Понятие международного договора
строительного подряда

70 **USMONOVA MUNISXON YO`LDOSH QIZI**

Muomala layoqatidagi nuqsonlar va uni
aniqlashdagi muammolar

81 **ASADOV SHAHRIDDIN FAKHRIDDIN UGLI**

Legal regulation of consulting services

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI.

AGRAR HUQUQ.

EKOLOGIK HUQUQ

90 **RAJABOV NARIMAN SHARIFBAYEVICH**

O'zbekistonda vodorod energetikasi sohasi
qonunchiligini takomillashtirishning ayrim
masalalari

97 **ХАЙИТОВ ПАНЖИ БУХАРОВИЧ**

Роль и значение объектов и субъектов
в энергетической безопасности

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING

OLDINI OLISH.

KRIMINOLOGIYA.

JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

106 **ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**

Janubiy Afrika Respublikasi jinoyat
qonunchiligida jazoni yengillashtirish instituti

12.00.09 – JINOYAT
PROTSESSI. KRIMINALISTIKA,

TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA

SUD EKSPERTIZASI

122 **UMARXONOV AZIZXON
SHARIPXONOVICH**

Sud bosqichlarida jinoyat protsessi
ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash
asoslari

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.2./EYHH2399>
UDC: 347.77(045)(575.1)

INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI BOSHQARISH VA TEXNOLOGIYALAR TRANSFERINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY MASALALARI

Xodjayev Baxshillo Kamolovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti prorektori,
professor v. b., yuridik fanlar doktori
ORCID: 0009-0000-2609-0807
e-mail: b.khodjaev@tsul.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada intellektual mulk huquqini boshqarish va texnologiyalarni transfer qilish sohasidagi davlat qo'llab-quvvatlovining o'рни hamda ahamiyati haqida so'z borgan. Bu boradagi davlat dasturlarining milliy va xorijiy tajribada o'z aksini topishi masalalari muhokama qilingan. Xususan, Hindiston, Belarus Respublikasining IT sohasidagi tajribasi misolida O'zbekistonda texnologiyalar transferining tashkiliy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Davlatning nafaqat ommaviy huquq, balki xususiy huquq nuqtayi nazaridan intellektual mulkni boshqarishdagi ishtirokiga e'tibor qaratilgan. Bu Yevropa Ittifoqi tajribasi misolida ochib berilgan. Shu bilan birga, IT parklardagi texnologiyalar transferini tartibga solishning shartnomaviy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va bundan kutiladigan natijalar xususida fikr yuritilgan. Ushbu tadqiqotda asosiy metod sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiy sharhlash hamda tizimlashtirish usuli tanlab olindi. Shuningdek, tadqiqotda texnologiyalar transferiga oid normalarning ifodalanishi tahlil qilindi va xorijiy mamlakatlar qonunchiligi bilan taqqoslagan holda mavjud holatni yanada takomillashtirishga oid fikrlar ilgari surildi.

Kalit so'zlar. Intellektual mulkni boshqarish, texnologiyalar transferi, IT, biznes, IT park.

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОДДЕРЖКИ УПРАВЛЕНИЯ ПРАВАМИ НА ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНУЮ СОБСТВЕННОСТЬ И ТРАНСФЕРА ТЕХНОЛОГИЙ

Ходжаев Бахшилло Камолович,
доктор юридических наук, и. о. профессора,
проректор Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье говорится о роли и значении государственной поддержки в сфере управления правами на интеллектуальную собственность и трансфера технологий. Обсуждены вопросы отечественного и зарубежного опыта государственных программ в этом направлении. В частности, были проанализированы организационно-правовые основы трансфера IT-технологий в Узбекистане на примере опыта Индии и Республики Беларусь. Затронут аспект участия государства в управлении интеллектуальной собственностью с точки зрения не только публичного, но и частного права. Это демонстрируется на опыте Европейского союза. При этом обсуждались вопросы совершенствования договорно-

правовых механизмов регулирования трансфера технологий в IT-парках и ожидаемые результаты. В качестве основных методов в данном исследовании были выбраны сравнительно-правовой анализ, метод логической интерпретации и систематизации. Также в исследовании проанализировано выражение норм трансфера технологий и выдвинуты идеи по дальнейшему улучшению существующей ситуации в сравнении с законодательством зарубежных стран.

Ключевые слова: управление интеллектуальной собственностью, трансфер технологий, IT, бизнес, IT-парк.

ORGANIZATIONAL AND LEGAL ISSUES OF STATE SUPPORT FOR INTELLECTUAL PROPERTY RIGHTS MANAGEMENT AND TECHNOLOGY TRANSFER

Khodjaev Bakhshillo Kamolovich,

Vice-Rector of the Tashkent State University of Law
Doctor of Law, Acting Professor

Abstract. This article discusses the role and importance of state support in the management of intellectual property rights and technology transfer. The issues of domestic and foreign experience of state programs in this direction are discussed. In particular, the organizational and legal framework of IT technology transfer in Uzbekistan, as an example of India and the Republic of Belarus, was analyzed. The aspect of state participation in intellectual property management from the perspective of not only public but also private law is touched upon. This is demonstrated by the experience of the European Union. At the same time, the issues of improving contractual and legal mechanisms for regulation of technology transfer in IT parks and the expected results were discussed. Comparative legal analysis, methods of logical interpretation, and systematization were chosen as the main methods in this study. Also in the study, the expression of norms of technology transfer is analyzed, and ideas for further improvement of the existing situation in comparison with the legislation of foreign countries are put forward.

Keywords: intellectual property management, technology transfer, IT, business, IT park.

Kirish

So'nggi yillarda mamlakatimizda intellektual mulkni boshqarish va texnologiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi hamda "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunlari qabul qilindi. "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunda ushbu muhim sohaning asosiy prinsiplari sifatida "samaradorlik, manfaatdorlik va rag'batlantirish" tamoyillari kiritilib, mazkur tamoyillar asosida qonunga ilmiy ishlanmalarni baholash va ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirishga oid normalar belgilandi. "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunda esa texnologiyalar transferi tushunchasi, mexanizmlari, uning ustuvor yo'nalishlari va usullari, shuningdek, texnologiyalar

transferini amalga oshirish cheklovlari belgilandi.

Mazkur qonunlar bilan ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirishning bazaviy huquqiy asoslari yanada takomillashtirildi. Qonunlarda belgilangan ustuvor yo'nalishlarda ish olib borish maqsadida bir qator qonunosti hujjatlari ham qabul qilindi. Ushbu tadqiqot ishida milliy va xorijiy tajribani taqqoslagan holda texnologiyalar transferi masalalarini tahlil qilishni maqsad qilganmiz.

Material va metodlar

Ushbu tadqiqotda asosiy metod sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiy sharhlash hamda tizimlashtirish usuli tanlab olindi. Shuningdek, tadqiqotda texnologiyalar transferiga oid normalarning ifodalanishi tahlil qilindi va xorijiy mamlakatlar qonun-

chiligi bilan taqqoslagan holda mavjud holatni yanada takomillashtirishga oid fikrlar ilgari surildi.

Tadqiqot natijalari

Milliy tajriba

“Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan texnologiyalar transferining ustuvor yo‘nalishlaridan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son qarori bilan tasdiqlangan Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturida ko‘rsatilgan bo‘lib, unda zamonaviy va yuqori texnologiyalarga asoslangan, import o‘rni bosuvchi yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga va xizmatlar ko‘rsatishga yo‘naltirilgan texnologiyalar transferini amalga oshirish vazifasi belgilangan. Mazkur vazifani amalga oshirish maqsadida Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil qilingan.

Bu boradagi muhim konseptual qoida esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son Farnoni bilan tasdiqlangan Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilanib, unda ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish borasida ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, mahsulotlar marketingi bilan shug‘ullanadigan alohida kompaniyalar tashkil etilib, ilm-fanga oid dasturlar doirasida yaratilgan yangi ishlanmalar marketingini yuritish va sheriklikda tijoratlashtirish majburiyatlari yuklanishi nazarda tutilgan.

Ushbu sohadagi islohotlar uchun zamin yaratgan hujjat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risi-

da”gi PQ-3855-son qarori bo‘lib, unda ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalaridan amalda foydalanish, ya‘ni ularni yaratish, huquqiy muhofaza qilish va joriy etish jarayonida tizimli muammolar sifatida quyidagilar ko‘rsatilgan:

birinchidan, oxirgi 5 yil ichida O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan va patentlangan ixtidorlar sonining yiliga 0,5 foizini tashkil etuvchi tijoratlashtirish darajasi yetarli emas;

ikkinchidan, chop etilgan ilmiy maqolalar va yaratilgan intellektual mulk obyektlari soni ilmiy tadqiqot va oliy ta‘lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonlari bo‘lib qolmoqda, bunda ularni joriy etish natijalari hisobga olinmayapti;

uchinchidan, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishning, shu jumladan, ilmiy-amaliy va innovatsion loyihalar hamda ishlanmalar ro‘yobga chiqarilishida iqtisodiyotning real sektori korxonalari ishtirokini rag‘batlantirishning samarali vositalari joriy etilmagan.

Xorijiy tajriba

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat tadqiqot tashkilotlari odatda sanoatga texnologiyalarni transfer qilishda intellektual mulkdan foydalanish bilan bog‘liq bir qancha muammolarga duch keladilar. Bunday muammolar qatoriga fundamental tadqiqotlarni olib borishda davlat tadqiqot tashkilotlari missiyasi, shuningdek, akademik madaniyat bilan bog‘liq nizolar, intellektual mulk boshqaruvi (menejmenti)ning yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, intellektual mulkka egalik qilish va daromadlarni taqsimlash masalalari bo‘yicha kelishmovchiliklar kabi muammolarni kiritish mumkin.

Jahon intellektual mulk tashkilotining (WIPO) keltirishicha, davlat tadqiqot tashkilotlari darajasida intellektual mulkni samarali boshqarish uchun quyidagi masalalarga e‘tibor berish lozim:

a) intellektual mulkni boshqarish va texnologiyalar transferi ofisini tegishli ravishda moliyalashtirishni ta‘minlash imkoniyati,

bunda foydaning uzoq muddatli istiqbolda (10–25 yil) moddiy ko‘rinishga kelishini hisobga olish kerak;

b) davlat tadqiqot tashkilotlari xodimlarini intellektual mulkdan foydalanish borasida to‘g‘ri rag‘batlantirish tizimini yaratish va bunday rag‘batlantirish choralari texnologiyalar transferining boshqa usullariga mos ravishda davom etishini ta‘minlash zarur;

c) manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, shu jumladan, mablag‘larni yo‘naltirishda fundamental yoki amaliy tadqiqotlardan birini tanlash, bilimlardan ochiq foydalanish yoki daromad olish uchun istisnalar taqdim etishdan birini tanlash, xodimlarning davlat tadqiqot tashkilotlari nomidan qabul qilgan qarorlaridan individual foyda olishi yoki olmasligi kabi nizoli vaziyatlarning oldini olish yoki ularni hal qilish yo‘llarini belgilash kerak [1].

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, transfer texnologiyalari tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun, birinchi navbatda, intellektual mulk haqida xabardorlikni oshirish talab qilindi. Negaki intellektual mulk, uning huquqiy muhofazasi va tasarruf etish bo‘yicha risklarni to‘g‘ri baholay olmaslik kompaniyaning inqiroziga olib kelishi mumkin.

Masalan, Amerika kasaba uyushmasi statistikasiga qaraganda, o‘rtacha yangi ochilgan bizneslarning 20 %i boshlang‘ich 2 yilda, 45 %i esa 5 yilda kasodga uchrar ekan.

Bunga sabab qilib:

- kompaniyaning moliyaviy ko‘rsatkichlarini aniq bilmaslik;
- xarajatlarni to‘g‘ri tahlil qilmaslik;
- korxonada biznes jarayonlar yo‘lga qo‘yilmaganligi va boshqalar [2] keltirib o‘tiladi.

Shu sababli intellektual mulk asosida tashkil etilgan korxonalar kasodga uchrashmasligi uchun u haqida xabardorlikni oshirish har jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqida mazkur masalalar bilan intellektual mulk huquqini qo‘llab-quvvatlash xizmati (IPR-Helpdesk) shug‘ullanadi.

Yildan tadqiqot uchun mablag‘ oluvchi tadqiqot va tijorat tashkilotlari intellektual mulkni himoya qilish va boshqarishga taalluqli qoidalarini o‘z ichiga olgan “Yevropa hamjamiyati bilan namunaviy shartnoma”ni tuzishlari shart [3]. Bundan tashqari, ishtirokchilar Texnologiyalar realizatsiyasi rejasini o‘z ichiga olgan Konsorsium to‘g‘risidagi kelishuvga [4] ham qo‘shilishlari zarur. O‘z navbatida, bu tadqiqot natijasida olingan bilimlardan “foydalanish”, ularni “tarqatish” va himoya qilish rejasini ishlab chiqishni talab qilib, mazkur reja quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

a) umumiy (birgalikdagi) mulkni taqsimlash va undan foydalanish tartibi;

b) foydalanish shartlarini belgilash, bunda kim foydalanishi, nimadan, qachon va qanday foydalanishi, shuningdek, huquqlardan erkin foydalana olishi kabi muhim shartlar belgilanadi;

c) konsorsium a‘zolariga huquqlardan qo‘shimcha yoki qulay tarzda foydalana olish, shu jumladan, uchinchi shaxslarga erkin foydalanish huquqini taqdim etish.

Intellektual mulk huquqi qo‘llab-quvvatlash xizmati (IPR-Helpdesk) ishtirokchilarga nafaqat intellektual mulkni samarali himoya qilish, balki uni boshqarishning ilg‘or tajribalari asosida quyidagi yo‘l-yo‘riqlarni ko‘rsatadi:

a) tadqiqotlarni o‘tkazish va konsorsiumga munosib sheriklarni izlash [5];

b) taklif etilayotgan ishlanma haqiqatan yangilik ekanligini tekshirish uchun patent ma‘lumotlar bazasidan foydalanish va ishning holatini o‘rganish [6];

c) mavjud nou-xauni litsenziyalash;

d) patentlardan strategik foydalanish [7].

Kichik va o‘rta biznes subyektlarining tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun soha mutaxassslaridan maxsus choralarni ko‘rish talab qilinadi. Chunki aksariyat kichik va o‘rta biznes subyektlarining qisqa muddatda bozorga chiqishlari uchun qo‘yiladigan talablar inte-

gratsiyalashgan loyihalar orqali uzoq muddatli ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishga o'tish maqsadiga muvofiq kelmasligi mumkin. Bunda taxminiy choralar quyidagilar bo'lishi mumkin:

a) kichik va o'rta biznes subyektlariga o'z intellektual mulkini himoya qilishiga yordam berish uchun shartnoma talablarini qayta ko'rib chiqish. Bu, o'z navbatida, loyihalar tugallanganidan so'ng undan foydalanish imkoniyatini teng ta'minlash uchun "Konsorsium haqidagi kelishuv"ni rasmiylashtirishni ham talab qilishi mumkin;

b) kichik va o'rta biznes subyektlari tomonidan muvofiqlashtiriladigan kichik loyihalar uchun tezkor tartibni joriy qilish. Bunday tartib tijoriy taklif kelib tushgandan shartnoma tuzgungacha bo'lgan 80 kunlik jarayonni o'z ichiga oladi;

c) kichik va o'rta biznes subyektlari ushbu choralardan tez va oson foyda olishi uchun ariza topshirish va baholash tartibini soddalashtirish;

d) o'z moliya instituti orqali ariza topshiradiganlar uchun mikro moliyalash sxemasini ko'rib chiqish.

IT sohasida ko'plab yutuqlarga erishayotgan Osiyo davlatlaridan biri Hindistonda Axborot texnologiyalari autsorsingi sektoridagi savdo assotsiatsiyasi (NASSCOM) sanoatning kelajakdagi rivoji uchun intellektual mulk huquqining ahamiyatini tan olgan. NASSCOM Hindistondagi mavjud intellektual mulk huquqining himoyasi holatini yanada yaxshilashga muhtoj ekanligini ta'kidlaydi. Bunda, avvalambor, patentni boshqarish uchun yuqori texnologiyali startaplarni ularning butun yashash davri mobaynida moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida Milliy patent fondini yaratish yoki mavjud fondlarni rag'batlantirish, patent idorasining ko'plab mahalliy filiallarini yaratish maqsadga muvofiq. NASSCOM fikricha, intellektual mulk huquqi himoyasi sohasida patent idorasi samaradorligini hamda sud, prokuratura va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi or-

ganlarning salohiyatini oshirish, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishni rag'batlantirish uchun AQShning Bey-Doul namunasidagi qonunchilik hujjatini qabul qilish lozim. Shu bilan birga, davlat tadqiqot tashkilotlarining o'zini o'zi moliyalashtirishini patentlash va litsenziyalashdagi yutuqlari bilan bozor tadqiqotlarida ishtirok etishini ta'minlash orqali rag'batlantirish choralari ko'rish zarur [8].

NASSCOM, shuningdek, autsorsing kompaniyalar uchun intellektual mulk huquqiga taalluqli tavsiyaviy xarakterdagi Xulq-atvor kodeksini ishlab chiqqanligi e'tiborga sazovor [9].

NASSCOM [10] tomonidan aniqlangan kamchiliklar ayni paytda O'zbekiston uchun ham xosdir. Shu sababdan bo'lsa kerak, Toshkent shahrida joylashgan IT park O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 30-sentabrdan 2-oktabrgacha bo'lgan Hindistonga tashrifi chog'ida o'zbek va hind tomonlari IT sohasidagi hamkorlikni kengaytirish bo'yicha kelishuvga erishishgan. O'zbekiston tomoni Hindistonning axborot va texnologiya kompaniyalari bilan birgalikda dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, startaplarni jadallashtirish bo'yicha ilg'or tajribalari asosida O'zbekistonda axborot texnologiyalari parkini yaratishga qiziqish bildirgan. Shu tariqa 2019-yil 24-iyulda Toshkentda O'zbekiston Respublikasidagi birinchi IT park ochildi va unda alohida huquqiy va soliq rejimi belgilandi. Xususan, IT rezidentlari bo'lgan kompaniyalar 2028-yil 1-yanvargacha qadar barcha turdagi soliqlar va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarni, ijtimoiy soliqni to'lashdan ozod etilgan. Ish haqi daromadidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 7,5 foiz miqdoridagi yagona stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.

Shu bilan birga, ba'zi MDH davlatlarining bu boradagi tajribasi ham foydalanishga arzigulik hisoblanadi. Xususan, *Belarus Respublikasi yuqori texnologiyalar parki (The Belarus High Technologies Park)* bu borada katta

tajriba to'plagan. Minsk shahrida joylashgan mazkur ilmiy-innovatsion parkda asosan dasturiy ta'minot sohasida faoliyat olib boruvchi 50 dan ortiq kompaniya ish olib boradi. Ushbu kompaniyalar Microsoft, SAP, Oracle, Novell, BEA, Sun Microsystems, IBM va shu kabi dunyoning yetakchi transmilliy kompaniyalari uchun ishlanmalarni yaratish bilan shug'ullanadi. Intellektual mulkni boshqarish – ushbu munosabatlarda muvaffaqiyatga erishishning hal qiluvchi elementlaridan biri hisoblanadi. Masalan, mazkur parkdagi yirik kompaniya hisoblangan EPAM Systems o'zining intellektual mulk sohasidagi siyosatini quyidagicha bayon qiladi: "Mijozning intellektual mulk huquqini hurmat qilish va xavfsizlikning yuqori darajasini ta'minlash uchun bizning ODC ("Taklif – vaqtini belgilash – harakatga chaqiruv", Offer-Deadline-Call to action) jahon xavfsizlik va himoya standartlariga, shu jumladan, personal, ma'lumotlar, infratuzilma, ishlab chiqarish obyektlari va intellektual mulk masalalarini tartibga soluvchi mijozning ichki siyosatiga qat'iy rioya qilgan holda tashkil etiladi va qo'llanadi" [11].

Tadqiqot natijalari tahlili

Shuningdek, mazkur park ishtirokchilari orasida qo'shma tadqiqotlar olib borilib, qo'shma tadqiqotlar to'g'risidagi kelishuvlarda quyidagilar ko'rsatiladi:

- a) maxfiy ma'lumotlar bilan ishlash tartibi;
- b) sheriklarning moliyaviy va naqd pulsiz shakldagi hissaları hamda intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning taqsimlanishi;
- d) tadqiqot natijalarini ilmiy jurnallarda nashr qilish qoidalari. Bunda patent himoyasiga ariza topshira olish uchun nashr qilish ishlari oqilona muddatga kechiktirilishi mumkin, ushbu muddat olti oy qilib belgilanishi mumkin (davlat qonunchiligi va muayyan bir holatdan kelib chiqib belgilanadi);
- e) "asosiy original" ma'lumotlaridan, shu jumladan, intellektual mulk huquqining sheriklarga tegishliligi va undan tadqiqot o'tkazish uchun erkin foydalana olish huquqi.

Bu, o'z navbatida, to'lanishi lozim bo'lgan har qanday litsenziya yig'imi va royaltini o'z ichiga oladi, shu bilan birga, o'tkazilishi rejalashtirilgan tadqiqot uchinchi shaxslarning IMHni buzmasligini tekshirish ham ushbu band doirasida belgilanadi;

f) hamkorlikdagi tadqiqot davomida yaratilgan intellektual mulkka bo'lgan egalik huquqini ustuvor tarzda (birinchi planda) belgilash. Bunda har bir tomon odatda tadqiqot natijalariga ega bo'lish va ulardan erkin foydalana olish bilan bog'liq shartlar, har bir tomon uning xodimlari tomonidan (yoki u belgilagan shart-sharoitlarda) yaratilgan tadqiqot natijalariga egalik qilishi yuzasidan boshlang'ich muzokaralar kabi masalalar belgilanishi mumkin. Biroq bu borada intellektual faoliyat natijalari yaratilganidan keyin (ex post) uni birgalikda boshqarishda murakkabliklarga olib kelishi mumkin;

g) intellektual mulk huquqini himoya qilish va amalda uning bajarilishini ta'minlash uchun mas'ul hisoblangan sherik. Natijaga erishish uchun bunday harakatlar dastlab har bir sherik tomonidan amalga oshiriladi, biroq bu borada imkoniyatlardagi farqlar inobatga olinishi lozim. Masalan, patent qimmatga tushishi mumkin, shuning uchun ham sherikda IMHga rioya qilishni ta'minlash uchun resurslar bo'lmasa, bunday mas'uliyatni boshqa sherikka o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi, buni esa litsenziya kelishuvi doirasida ham amalga oshirish mumkin;

h) taraflar tomonidan muvaffaqiyatli tijoratlashtirishdan olingan daromadlarni taqsimlash tartibi. Bunda bir nechta litsenziatlarga nomutlaq litsenziyalar yoki tadqiqot sheriklaridan biriga mutlaq litsenziya berilishi mumkin. Bunday eksklyuzivlik (mutlaqlik) ixtirodan foydalanish sohasi va/yoki ixtiro amalda qo'llanadigan geografik hududga taalluqli bo'lishi mumkin. Kompensatsiya esa amaldagi yoki ma'lum bir bosqichdagi yutuqlar yoxud foydada-gi ishtirokdan kelib chiquvchi litsenziya yig'implari yoki royalti shaklida qabul qili-

nishi mumkin. Intellektual mulk huquqi bir sherik tomonidan boshqa sherikka (nomutlaq) litsenziyani dastlabki egasiga “qaytarish” sharti bilan o‘tkazib berilishi ham mumkin. Ixtirodan maksimal darajada foydalanish uchun sublitsenziyalashga ruxsat berilishi mumkin. Mutlaq litsenziya taqdim qilingan hollarda kelishuv auditdan o‘tkazish (due diligence) shartini o‘z ichiga olishi kerak, unga ko‘ra, litsenziat ixtironi tijoratlashtirishga vijdonan kirishmasa, litsenziya chaqirib olinishi mumkin;

i) hamkorlikdagi tadqiqotlar natijalaridan ilmiy tadqiqot va o‘quv maqsadlarida foydalanish shartlari [12].

Xulosalar

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkin, O‘zbekistonda intellektual mulk huquqini boshqarish va texnologiyalar transferini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar bazasi yaratilgan. Bu boradagi qonunchilik hujjatlarning ishlash mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan. Biroq davlat tomonidan mazkur munosabatlarning nafaqat ommaviy huquq nuqtayi nazaridan, balki xususiy huquq nuqtayi nazaridan ham qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rilishi maqsadga muvofiq. Bunda “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi hamda “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunlarda belgilangan tijoratlashtirish shakllarining an‘anaviy ro‘yxatini kengaytirish ham muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, texnologiyalar transferining

shartnomaviy-huquqiy mexanizmlari doirasini ham kengaytirish kerak. Texnologiyalar transferi bilan bog‘liq masalalar quyidagi yuridik kelishuvlarda hal qilinishi mumkin:

1) shartnomaviy tadqiqotlar to‘g‘risidagi kelishuv;

2) qo‘shma tadqiqotlar to‘g‘risidagi kelishuv;

3) materialni o‘tkazib berish to‘g‘risidagi kelishuv;

4) maxfiylik to‘g‘risidagi kelishuv;

5) ishtirok etish to‘g‘risidagi kelishuv;

6) litsenziya kelishuvi.

Negaki texnologiyalar transferi nihoyatda nozik masala bo‘lib, uni birgina ommaviy oferta yoki namunaviy shartnoma bilan hal qilib qo‘yishning imkoni yo‘q. Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlarini, ayniqsa, IT sohasi bilan shug‘ullanuvchi yoki shug‘ullanish niyatida bo‘lgan tadbirkorlarni intellektual mulkni boshqarish masalasi bo‘yicha o‘qitish yuzasidan davlat dasturi qabul qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘qitish ishlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan taqdirda tadbirkor yoki IT mutaxassis quyidagilarga erishishi mumkin:

o‘zining va boshqalarning intellektual mulkiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish; plagiat yoki “IT qaroqchiligi” bilan shug‘ullanmaslik;

tijorat siri yoki boshqa qonun bilan qo‘riqlanadigan sirlarni oshkor qilish yoki o‘g‘irlash uchun javobgarlikning huquqiy oqibatlarini anglay olish va eng muhimi, o‘z intellektual faoliyatini qonuniy asoslarda yo‘lga qo‘yish.

REFERENCES

1. Intellectual Property Commercialization: Policy Options and Practical Instruments. United Nations, Geneva, Switzerland, 2011. Available at: <https://unece.org/fileadmin/DAM/ceci/publications/ip.pdf/>
2. Top 6 Reasons New Businesses Fail. Available at: <https://www.investopedia.com/financial-edge/1010/top-6-reasons-new-businesses-fail.aspx/>

3. Model agreement with the European Community. Available at: <http://www.cordis.lu/fp6/stepbystep/home.html/>
4. The rules for participation and for dissemination in the Framework Programme - Regulation 2321/2002 of the European Parliament and of the Council. Available at: ftp://ftp.cordis.europa.eu/pub/documents_r5/natdir0000030/s_4884005_20051007_141055_6FPL021890en.pdf
5. Partner search facilities, the Commission's CORDIS server. Available at: <http://www.cordis.lu/>
6. Espacenet offers free access to information about inventions and technical developments from 1782 to today. Patent database "esp@cenet". Available at: <https://www.epo.org/searching-for-patents/technical/espacenet.html/>
7. Background Information Document prepared by the SMEs Division of the WIPO, Research and Innovation Issues in University Industry Relations, 2002. Available at: <http://www.wipo.int/sme/en/documents/pdf/fp6.pdf>
8. NASSCOM-BCG, Innovation Report 2007. Available at: <http://www.nasscom.org/upload/53197/NASSCOM-BCG%20Innovation%20Report%202007-%20Exec%20Summary.pdf/> (accessed 11.12.2009).
9. Hi-Tech Park Belarus. Available at: <https://www.park.by/en/>
10. Intellectual Property Commercialization: Policy Options and Practical Instruments. United Nations, Geneva (Switzerland), 2011. Available at: <https://unece.org/fileadmin/DAM/ceci/publications/ip.pdf/>
11. Khodjaev B. Transitional competition model for misleading advertising regulation in Uzbekistan: an alternative approach. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 1, pp. 130–139. Available at: https://www.researchgate.net/publication/347516783_Transitional_competition_model_for_misleading_advertising_regulation_in_Uzbekistan_an_alternative_approach/
12. Khodjaev B. Misleading Advertising Regulation in Post Soviet Countries: Comparative Analysis of Uzbekistan and Russia. 2020, no. 3, pp. 59–61. Available at: https://www.researchgate.net/publication/356603278_Misleading_Advertising_Regulation_in_Post_Soviet_Countries_Comparative_Analysis_of_Uzbekistan_and_Russia
13. Khodjaev B.K. Unfairness in advertising: doctrinal analysis of the us and Uzbekistan's legal standard. *Frontline Social Sciences and History Journal*, 2021, vol. 1 (08), pp. 141–155. DOI: 10.37547/social-fsshj-01-08-19/
14. Khodjaev B. Application Problems of Commercial Speech Doctrine in CIS Countries: on the Example of Russia and Uzbekistan. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2020, no. 02, pp. 1–10. DOI: 10.37547/tajssei/Volume02Issue08-01/
15. Khodjayev B. Advertising Law & Policy in Uzbekistan: Deception standard versus Non-content regulation Background: Law & Policy in a nutshell. 2020. DOI: 10.13140/RG.2.2.23014.45124/

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 2-son

VOLUME 7 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.2.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Sh. Yusupova, Y. Mahmudov

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 26.06.2023-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 17,7 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 36.

TDYU tipografiyasida chop etildi.